



BUXORO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

**BUXORO VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**

**2022- YIL
YANVAR-MAY**

2022- yilning yanvar-may oyida, Buxoro viloyatida jami **2 870,3** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2021- yilning yanvar-may oyiga nisbatan **105,1 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.

Norasmiy sektor

17,3

23,9

58,8

Yirik korxona va
tashkilotlar

Kichik korxona
va mikrofirmalar

**2022- yil 1-iyun holatiga
ko‘ra qurilish ishlari
bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan
korxona va tashkilotlar, birlikda**



Yillar kesimida soni



1 753

Bino va inshootlar
qurish


347

Fuqarolik obyektlarini
qurish

822

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Hududlar kesimida



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o’sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirganda o’sish sur’ati 102,4 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagи yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 60,0 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 102,1 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 11,9 foiz ulushi tashkil etib, o’sish sur’ati 2021- yilning mos davriga nisbatan 136,6 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 28,1 foiz ulushni va 93,2 foiz o’sish sur’atini tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yiliga nisbatan, % da
	01.06.2021- y.	01.06.2022- y.	
Buxoro viloyati	2 853	2 922	102,4
Buxoro shahri	945	941	99,6
Kogon shahri	121	130	107,4
<i>tumanlar:</i>			
Olot	74	81	109,5
Buxoro	231	228	98,7
Vobkent	121	123	101,7
G'ijduvon	192	198	103,1
Kogon	143	144	100,7
Qorako'l	112	108	96,4
Qorovulbozor	51	55	107,8
Peshko'	157	180	114,6
Romitan	228	254	111,4
Jondor	236	237	100,4
Shofirkon	242	243	100,4



**2022- yil 1- iyun holatiga ko‘ra
Buxoro viloyatida
faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish
korxonalari ulushi, % da**




Buxoro sh. (32,2)



Romitan t. (8,7)



Shofirkon t. (8,3)



Qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	2 870,3	496,0	1 688,6	685,7
Buxoro sh.	656,4	52,6	432,5	171,3
Kogon sh.	155,6	107,1	28,4	20,1
tumanlar:				
Olot	190,0	59,6	89,2	41,2
Buxoro	205,8	9,0	137,2	59,6
Vobkent	86,0	-	57,1	28,9
G'ijduvon	218,2	0,1	148,3	69,8
Kogon	206,3	48,1	115,7	42,5
Qorako'l	141,2	2,6	104,1	34,5
Qorovulbozor	185,0	117,2	62,6	5,2
Peshku	187,7	-	130,2	57,5
Romitan	268,5	86,9	108,2	73,4
Jondor	189,1	-	147,4	41,7
Shofirkon	180,5	12,8	127,7	40




2022- yilning yanvar-may oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 496,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning mos davriga nisbatan 96,1 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko'rsatkich darajasidan 1,2 % punktg'a kamayib, 17,3 % ni tashkil etdi.


Qurilish ishlari

2022- yil yanvar-may uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish-montaj, qayta ta'mirlash, kapital ta'mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug'ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Kogon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 68,8% i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 159,0 %), Qorovulbozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 63,3 % i yoki 2021- yilning mos davriga nisbatan 79,1%) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2022- yilning yanvar-may oyida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 58,8% i to‘g‘ri kelib, 2021- yil yanvar-may ko‘rsatkichiga nisbatan 0,7 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 104,6% ni tashkil etgan holda 1 688,6 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da



58,8

2022-yil
Yanvar-may

58,1


2021- yil
Yanvar-may



MA’LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Jondor tumanida (147,4 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 77,9%), Qorako‘l tumanida (104,1 mlrd. so‘m yoki 73,7 %) va Shofirkon tumanida (127,7 mlrd. so‘m yoki 70,7 %)ga to‘g‘ri keldi.

Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 23,9 % ni tashkil etdi yoki 685,7 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilning mos davriga nisbatan 113,2 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 138,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa 2 732,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,8 % va 95,2 % ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar-may oyida**



Bajarilgan qurilish ishlaringning katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlaringning **51,6 %** i yoki **1480,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

15,5 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **229,2** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **15,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **676,5** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **45,8 %** ni tashkil etdi.

45,7 %

38,8 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **575,0** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **38,8 %** ni tashkil etdi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may oyida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Buxoro viloyati	2 870,3	105,1	100,0
<i>shahar:</i>			
Buxoro sh.	656,4	104,1	22,9
Kogon sh.	155,6	141,8	5,4
<i>tuman:</i>			
Olot	190,0	100,1	6,7
Buxoro	205,8	108,6	7,2
Vobkent	86,0	98,0	3,0
G'ijduvon	218,2	103,4	7,6
Kogon	206,3	119,9	7,2
Qorako'l	141,2	101,2	4,9
Qorovulbozor	185,0	102,4	6,4
Peshko'	187,7	107,9	6,5
Romitan	268,5	92,4	9,4
Jondor	189,1	103,6	6,6
Shofirkon	180,5	103,5	6,2



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da

10,0

2021- yil
Yanvar-may

9,8

53,7

54,5

36,3

2022- yil
Yanvar-may

35,7



Yirik qurilish
tashkilotlari



Kichik korxona
va mikrofirmalar



Norasmiy
sektor

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 9,8 % ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-maydagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga kamaydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,8 % punktga ko'payib, 54,5 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2021- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,6 % punktga kamayib, 35,7 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari


- Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 27,9 % ni tashkil etdi va 2021- yil yanvar-mayga nisbatan 0,7 % punktga ko'paydi.
- Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 72,1 % (0,7 % punktga lamayish) hamda norasmiy sektoring ulushi 0,0 % ni tashkil etdi.

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari


2021- yil yanvar-may



Kichik korxona va mikrofirmalar

2022- yil yanvar-may

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,4 % punktga kamaydi va 38,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 61,8 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 4,4 % punktga ko'paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may


	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		Bino va inshootlarni qurish	Fuqarolik obyektlarini qurish	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Buxoro viloyati	2 870,3	1 922,8	527,6	419,9
<i>shahar:</i>				
Buxoro sh.	656,4	434,2	154,1	68,1
Kogon sh.	155,6	114,4	31,3	9,9
<i>tuman:</i>				
Olot	190,1	97,1	19,9	73,0
Buxoro	205,8	148,5	36,4	20,9
Vobkent	86,0	63,4	14,2	8,4
G'ijduvon	218,2	165,9	29,5	22,8
Kogon	206,3	139,6	41,8	24,9
Qorako'l	141,2	103,3	21,8	16,1
Qorovulbozor	185,0	46,5	40,9	97,6
Peshko'	187,7	137,9	29,9	19,9
Romitan	268,5	208,8	43,4	16,3
Jondor	189,1	136,1	30,6	22,4
Shofirkon	180,5	127,1	33,8	19,6



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may



ulushi % da



Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2022- yil yanvar-may uchun

	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	1 449,7	103,4
<i>shahar:</i>		
Buxoro sh.	2 308,1	103,1
Kogon sh.	2 493,2	140,0
<i>tuman:</i>		
Olot	1 872,2	98,8
Buxoro	1 193,0	106,5
Vobkent	598,2	96,4
G'ijduvon	698,6	101,8
Kogon	2 537,6	117,4
Qorako'l	842,7	99,8
Qorovulbozor	9 687,8	99,7
Peshko'	1 479,1	106,0
Romitan	1 831,1	90,8
Jondor	1 053,0	101,9
Shofirkon	991,7	101,9



**Hududlar kesimida aholi jon boshiga
qurilish ishlari
2022- yil yanvar-may uchun**



Hududlar kesimida 2022- yil yanvar-may oyida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Qorovulbozor tumani — 9 687,8 ming so'm (yoki, 2021-yilning mos davriga nisbatan 99,7 %), undan keyin mos ravishda Kogon tumani – 2 537,6 ming so'm (yoki 117,4 %), Kogon shahri — 2 493,2 ming so'm (yoki 140,0 %), Buxoro shahri – 2 308,1 ming so'm (yoki 103,1 %), Buxoro tumani – 1 993,0 ming so'm (yoki 106,5 %) egalladi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: **(65) 223-81-99**